



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI NURAFSHON SHAHAR HOKIMINING FARMOYISHI

Nurafshon sh., Toshkent yo'li ko'chasi, 55a uy

2022 - yil 11 - avgust

183-10-213-F/22

Nurafshon shahar hokimligi

### **“Yoshlar daftari” jamg'armasidan mablag' ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi “Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 312-sonli va Toshkent viloyat hokimining 2022-yil 20-iyundagi 379-10-0-Q/22-sonli qarorlari hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi Nurafshon shahar Vasiylik Kengashining 2022-yil 8-avgustdagi 10-sonli yig'ilish bayonining ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi Nurafshon shahar Vasiylik Kengashining 2022-yil 8-avgustdagi 10-sonli yig'ilish bayoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Yoshlar daftari” jamg'armasida (3050228604274013332107018) shakllangan mablag'lar hisobidan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida:

- “Yoshlar daftari”ga kiritilgan moddiy ahvoli og'ir yoshlarga bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha bir martalik moddiy yordam puli berish uchun 1-ilovaga muvofiq 2 400 000 (ikki million to'rt yuz ming) so'm;

- “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini-o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun 2-ilovaga muvofiq 179 000 000 (bir yuz yetmish to'qqiz million) so'm;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi “Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 312-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga hamda “Oila va xotin-qizlar bo'limi”ning 2022-yil 8-avgustdagi xatiga asosan “Temir daftar” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan oilalarning farzandlariga bir kalendar yilida bir marotaba maktab formasini xarid qilish uchun 3-ilovaga muvofiq 200 200 000 (ikki yuz million ikki yuz ming) so'm jami 381 600 000 (uch yuz sakson bir million olti yuz ming) so'm mablag' shahar hokimligiga

(305022860274017109601018001) yo'naltirilsin.

3. Yoshlar ishlari Agentligi Nurafshon shahar bo'limi (B.Abduqodirov – Vasiylik Kengashi kotibi), Vasiylik Kengashi a'zolari, Oila va xotin-qizlar bo'limi, Xalq ta'limi bo'limi va Mahalla fuqarolar yig'inlari bilan birgalikda hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirishini ta'minlasin.

4. Shahar Moliya bo'limi (M.Miryusupov) jamg'armaning xarajatlar smetasiga belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritishni, shahar g'aznachilik bo'linmasi (L.Baxodirov) va shahar hokimligi bosh hisobchisi (I.Sobirova) ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda o'tkazilishini ta'minlasin;

- qonunchilikda boshqa holatlar ko'zda tutilmagan hollarda "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalarning farzandlariga bir kalendar yilida bir marotaba maktab formasini xarid qilinish bilan bog'liq xarajatlar uchun mablag'lar "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan fuqarolarning bank plastik kartochkalariga o'tkazib berish tavsiya etilsin.

5. Yoshlar ishlari agentligi Nurafshon shahar bo'limi (B.Abduqodirov) ajratilgan mablag'lar hisobiga yoshlar daftariga kiritilgan fuqarolarga ko'rsatilgan yordamlar hamda "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalarning farzandlariga bir kalendar yilida bir marotaba maktab formasini xarid qilinishi bilan bog'liq tadbirlar yuzasidan xalq deputatlari Nurafshon shahar Kengashiga axborot kiritsin.

6. Shahardagi mas'ul sektor kotiblari, mahalla fuqarolari yig'ini raislari, mahalladagi hokim yordamchilari hamda Yoshlar ishlari agentligi shahar bo'limi "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga berilgan o'zini-o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini yetkazib berishni hamda samarali foydalanishini nazoratga olsinlar.

7. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o'rinbosari N.Kulbekova va K.Pardabaevalar zimmasiga yuklansin.

**Shahar hokimi**



**M.Saliyev**

Nurafshon shahar hokimining  
2022 yil 11 avgustdagi  
183-10-213-F/22-son farmoyishiga  
2-ilova

**“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o‘zini-o‘zi band qilishga zarur bo‘lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilinayotgan yoshlarning**

**RO‘YXAT**

№	№	F.I.Sh	Yashash manzili	Vasiylik kengashiga ariza mazmuni	Miqdori (so‘mda)
<b>1-sektor</b>					
1	1	Agaybekov Maxmudbek Erjon o‘g‘li	“Degantepa” MFY, Qoraqo‘yli 1 ko‘chasi, 29-uy	1. Payvandlash uskunasi (svarka apparati) ✓ 2. Bolgarka ✓	6 000 000
2	2	Xaydaraliyev Sherazim Shermat o‘g‘li	“Degantepa” MFY Degantepa ko‘chasi 128-uy	1. Parrandalarni yetishtirish uskunasi ✓ 2. (Inkubator 300 talik)	5 000 000
3	3	Yoqubjonova Movluda Xusniddin qizi	“Degantepa” MFY Zarxayot ko‘chasi 107-uy	1. Tikish moshinasi ✓ 2. Overlok ✓	11 000 000
4	4	Areslanova Kamila Zokir qizi	“Nurafshon” MFY, 17-uy, 27-xonadon	1. Tikish moshinasi ✓	7 000 000
5	5	Toshxodjayeva Rushona Inamaliyevna	“Yangiobod” MFY Yangiobod ko‘chasi 15/67-uy	1. Tikish moshinasi ✓ 2. Overlok ✓	11 000 000
6	6	Kayumova Maxliyo Murodovna	“Yangiobod” MFY Toshkent yo‘li ko‘chasi 3/13-uy	1. Pyech (qandolat maxsulotlarini pishirish) ✓ 2. Kofe tayyorlash apparati ✓ 3. Mikrovalnofka + 4. Misrofka ✓	10 000 000
7	7	Saydazimov Farxod Ruslanjonovich	“Yoshlik” MFY Shevchenko ko‘chasi 1-uy	1. Payvandlash uskunasi (svarka apparati) ✓ 2. Bolgarka ✓	8 000 000
<b>2-sektor</b>					
8	1	Adiqulov Odiljon Olimjon o‘g‘li	“Nafruz” MFY, Yoshlik ko‘chasi	1. Payvandlash uskunasi (svarka apparati) ✓ 2. Bolgarka ✓ 3. Drel ✓	9 000 000
<b>3-sektor</b>					

№	№	F.I.Sh	Yashash manzili	Vasiylik kengashiga ariza mazmuni	Miqdori (so'mda)
9	1	Xolmatova Go'zal Xikmat qizi	"Oppoq" MFY, Oppoq ko'chasi, 65-uy	1. Tikish moshinasi ✓ 2. Overlok ✓	11 000 000
10	2	Ibragimova Ziyoda Raximberdi qizi	"Oppoq" MFY, Yangiobod ko'chasi, 22a-uy	1. Tikish moshinasi ✓ 2. Overlok ✓	11 000 000
11	3	Yuo'ldoshev Jamshid Rustam o'g'li	"Oppoq" MFY, Yoshlik ko'chasi, 4-uy	1. Payvandlash uskunasi (svarka apparati) ✓ 2. Bolgarka ✓	6 000 000
12	4	Baxitova Dilfuza Xusanaliyevna	"Chig'iriq" MFY, Toshket yo'li ko'chasi, 52-uy	1. Tikish moshinasi ✓ 2. Overlok ✓	11 000 000
13	5	Useinova Lemara Narimanovna	"Yuksalish" MFY Toshkent yo'li ko'chasi, 18/53-uy	1. Fen ✓ 2. Gofre ✓ 3. Soch uchun dazmoli ✓ 4. Soch olish mashinasi ✓ 5. Taroqlar to'plami ✓ 6. Soch olish uchun qaychilar to'plami ✓	8 000 000
14	6	Sheraliyeva Muxlisa Rustam qizi	"Yuksalish" MFY 9/25-uy	1. Noutbuk ✓	7 000 000
15	7	Xaydarova Sojida Olimjon qizi	"Birlik" MFY Chilonzor ko'chasi, 66-uy	1. Tikish moshinasi ✓ 2. Overlok ✓	11 000 000
16	8	Xudyarova Yulvuz Orif qizi	"Xurriyat" MFY Shodlik ko'chasi, 2/6-uy	1. Pech (qandolat mahsulotlarini pishirish) ✓ 2. Mikser (Beon BN-228, 800 Vt) ✓	7 000 000
17	9	Movlanova Sevara Faxriddin qizi	"Xurriyat" MFY Baxor ko'chasi, 40-uy	1. Noutbuk ✓	7 000 000
<b>4-sektor</b>					
18	1	Ergasheva Surayyo Adxam qizi	"Oybek" MFY, Sport ko'chasi, 36-uy	1. Noutbuk ✓	9 000 000
19	2	Azerenin Nikolay Petrovich	"Oybek" MFY, M.Ulug'bek ko'chasi, 41-uy	1. Payvandlash uskunasi (svarka apparati) ✓ 2. Bolgarka ✓	6 000 000
20	3	Atamatova Nazira Rustamali qizi	"Obod" MFY, Osuda ko'chasi, 18-uy	1. Tikish moshinasi ✓ 2. Overlok ✓	11 000 000
21	4	Karimova Surayyo Ikrom qizi	"Obod" MFY, Shinam ko'chasi, 34-uy	1. Tikish moshinasi ✓	7 000 000

179 000 000